

Uzbekistan Airways binosida yong'inga qarshi mashg'ulot

2024 4 Mart

Bugun, 2024-yilning 4-mart kuni Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Uchuvchilar majmuasi binosida yong'in sodir bo'lgan vaziyatda odamlarni evakuatsiya qilish bo'yicha o'quv mashg'uloti bo'lib o'tdi.



Fuqaro muhofazasi sohasidagi ushbu o'quv-uslubiy tadbir Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan hamkorlikda aviakompaniya rahbariyati va xodimlarining ko'p qavatli binoda yirik yong'in sodir bo'lganda tartib-qoidalar bo'yicha bilimlarini oshirish maqsadida o'tkazildi.



O'quv mashg'uloti davomida yong'indan ogohlantirish tizimi to'g'ri ishladi, xodimlar evakuatsiya qilish yo'llari orqali binoni tark etdilar.





Bundan tashqari, zambilda va arqondan tushirish moslamasidan foydalangan holda evakuatsiya qilishning namoyishi o'tkazildi.





Tadbir so'ngida Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari Uzbekistan Airways xodimlarini o't o'chiruvchilarning faoliyati, yong'inni o'chirishda foydalaniladigan texnika va jihozlar bilan tanishtirdi, shuningdek, maxsus kiyimlar namoyish etildi.

